



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ALOHIDA
EHTIYOJMAND BOLALAR PSIXOLOGIYASI**

**PSYCHOLOGY OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS IN
PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

Mamarasulova Nargiza Mahammadjonovna

Farg'ona viloyati, Quva tumani

40- Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

mamarasulovan546@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotida nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish haqida bo'lib, tavsiya va maslahatlar bilan boyitilgan. Shuningdek, Prezident qaror va farmonlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Nogironligi bo'lgan shaxslar, maktabgacha ta'lim muassasasi, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiy tenglik, inklyuziv ta'lim.

Abstract. This article is about educating children with disabilities in a preschool educational organization and is enriched with recommendations and advice. Examples of presidential decrees and decrees are also presented.

Key words. People with disabilities, preschool, primary education, social equality, inclusive education.

«Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz», – deydi prezident Shavkat Mirziyayev.



«Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q¹», – deb davom ettiradi Shavkat Mirziyoyev o'z nutrition.

Albatta, mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'chaga qamrab olish ko'rsatkichi 2017 yilda 27,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yili 37,7 foiz, 2019 yili 52,3 foiz, 2020 yili 60,9 foiz, 2021 yilning iyun oyi holatiga ko'ra, 62,4 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich yildan yilga oshib boryapti.

2021 yil 24 dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining tashabbusi bilan tashkil etilgan **“Kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish, davlat Investitsiyalar dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi”** mavzusidagi amaliy-muloqot ham aynan shu masalaga bag'ishlandi.

Unda deputatlar, Maktabgacha ta'lim vazirligining mutasaddi rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda yurtimizning barcha hududida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ko'paymoqda. 2017 yilda mamlakatimizda 5 ming 211 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 18 ming 254 taga yetdi. Xususan, 2021 yilda 3–7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 65 foizga yetkazish belgilangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, 2025 yilda 6 yoshdagi bolalarni maktabgacha majburiy tayyorgarlik guruhlariga 100 foiz qamrab olish rejalashtirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. 15 Noyabr 2022-yil



Maktabgacha ta'lim vazirligi o'tgan davr mobaynida bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni joriy etish bo'yicha loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona viloyati hamda Toshkent shahridagi tuman va shaharlarda tashkil etilgan 494 ta guruhdagi 11 ming 103 nafar bola yillik majburiy tayyorgarlikdan o'tkazildi.

Shu bilan birga vazirlik tomonidan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama hamkorlik faol rivojlanmoqda. 2017 yildan buyon chet ellik hamkorlar bilan yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan 60 dan ortiq o'zaro anglashuv memorandumlari va doiraviy bitimlar imzolandi.

Qolaversa, vazirlik sohada Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Singapur, Turkiya, Polsha va boshqa mamlakatlar, shuningdek, Jahon banki guruhi, YuNISEF, YuNESKO, KOICA, JICA, TIKa, YeXHT, Saudiya taraqqiyot jamg'armasi, "Rossotrudnichestvo" kabi xalqaro tashkilotlar hamda moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik qilib kelmoqda.

Tadbirda ta'kidlanganidek, BMTning YuNISEF xalqaro bolalar jamg'armasi bilan birgalikda maktabgacha ta'limning muqobil shakllari sinovdan o'tkazildi. Jumladan, yurtimizning chekka hududida yashovchi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga e'tibor qaratgan holda "uyga tashrif", maxsus ta'limga ehtiyojmand bolalar uchun "erta rivojlantirish markazlari" sinovdan o'tkazildi.

Amaliy-muloqot shaklida tashkil etilgan tadbirda qo'mita a'zolari soha yuzasidan vazirlikning mutasaddi rahbarlari bilan fikrlar almashib, o'zlarining taklif va tavsiyalarini berishdi.

Milliy qadriyatlarmizda ham bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilganligi tarixiy manbalarda to'liq aks etgan bo'lib, jumladan hadisi shariflarda sog'lom bola ahli islomning muddaosi bo'lganligi keltiriladi. Bunga muhaddislar imomi – buyuk bobomiz Imom Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» kitobida dalil bor. Kitobning bir bobi «Bola sog'lom tug'ilsa, Xudoga shukr qilish haqida», deb ataladi. Unda: «Oyisha (r.a.) biron

oilada farzand tug'lsa, o'g'il yoki qizligini so'ramas edilar. Balki: «Sog'lommi?» – deb so'rar, «Ha», deyilsa, «Olamlarning Parvardigori Allohga shukr», derdilar» deyilgan².

Biroq, ming afsuski, nuri diydalarimiz orasida sog'lom bolalardan ozgina orqada qoladiganlari ham topiladi. Quyidagi jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, farzandimizning o'sib-ulg'ayishida qanday kamchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini anglashimiz mumkin.

Bola qila olishi kerak	<p>Ko'rsatilgan yo'ldan yura olishi</p> <p>Ma'noli gaplashish va ko'plab turli so'zlarni qo'llashi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qarama-qarshiliklarni tushunishi (masalan, semiz va oriq, uzun va qisqa) • Boshqa bolalar bilan o'ynashi • Doimiy yordamsiz kiyina olishi • Sodda savollarga javob bera olishi • 5 tadan 10 tagacha narsalarni sanay olishi • Qo'lini yuva olishi
Ota-onalar va murabbiylarga maslahatlar	<ul style="list-style-type: none"> • Bolaning gap-so'zlariga quloq tuting <p>Bola bilan tez-tez muomala qiling</p> <ul style="list-style-type: none"> • Agar bola duduqlansa, unga shoshilmasdan dona-dona qilib gapirishni taklif qiling • Hikoyalar o'qib bering va aytib bering <p>Bolani turli o'yinlarga va yangi narsalarni o'zlashtirishga rag'batlantiring</p> <ul style="list-style-type: none"> • Bola qanday o'ynayotganiga e'tibor bering.
Xavotirli belgilar	<p>Agar u qo'rqqoq, jahldor va g'azabl原因 bo'lsa, bular ruhiy muammolar yoki nisbatan yomon munosabatning natijasi bo'lishi mumkin.</p>

Agar bu kabi oilaviy muammolar, bolaga nisbatan yomon munosabatning oldi olinmasa, bolada xoh aqliy, xoh ruhiy va yoki jismoniy nogironlik yuzaga kelishi mumkin. "Nogiron" so'zi - jismoniy, aqliy, psixologik va hissiy faoliyatning izdan chiqishi, shikastlanishi natijasida hayot faoliyatining cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan va ijtimoiy yordam hamda himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs tushuniladi. "Nogiron" atamasi hozirgi kunda eskirib qolgan va qo'pol bo'lgan so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday shaxslarga nisbatan "imkoniyati cheklangan insonlar" yoki "alohida ehtiyojmand shaxslar" deb murojaat qilish to'g'ri bo'ladi.

² Имом Бухорий. Ал-Адаб Ал-Муфрад: (Адаб дурдоналари). / Тарж. Ш.Бобохонов, Н.Абдулмажид; Масъул муҳаррир ва биографик маълумотлар, луғат муаллифи А.Самад. – Т.: «Фан», 2006. -408-б.



Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan va himoya qilinmoqda. . BMT ning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi " Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Va bu huquqlar ehtiyojmand bolalarning boshqa bolalar bilan bir xil mavqe'da turishini ifodalaydi.

Prezident tomonidan 13- oktabr 2020- yilda " Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2020- yil 14 - oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko'ra 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha " Yo'l xaritasi" tuzib chiqiladi. Bu konsepsiya 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 1-bosqichda (2020-2022-yillar) inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o'quv qurollari bilan maktablarni ta'minlash nazarda tutilgan.

2- bosqichda (2023-2025-yillar) inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish, bu bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirish kabilar.

³Inklyuziv ta'lim - bu maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta'lim olish imkonini beradi.

³ www.norma.uz. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limjoriy etiladi.- 17.10.2020.

Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich ayrim maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida sinov tariqasida yo'lga qo'yiladi va ijobiy natija va tajribalar keyinchalik respublikaning boshqa hududlaridagi maktablarida tadbiq etiladi. Shuningdek, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida " Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etiladi.

Inklyuzi ta'limni joriy etishda boshqa davlatlarning tajriba va yutuqlaridan foydalanish, yaxshi natijalarga erishish uchun zamin bo'la oladi.

Misol uchun, Amerika davlatlarida nogironligi bo'lgan bola tug'ilsa, uni tug'ilganidan boshlab ijtimoiy hayotga moslashtirish, avvalo maktabgacha ta'lim bosqichiga, so'ngra maktab, kollej va universitetlarda tahsil olishiga erishish va amalga oshirish uchun mutaxassislar, nevropatolog, psixolog, nogironlik turiga qarab logoped, oligofrenopedagog yoki tiflopedagog biriktiriladi. Bu mutaxassislar bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab bola bilan shug'ullanishadi va uni bog'chaga (ijtimoiy muhitga) har tomonlama moslashtirib borishadi. Bog'chada ishlaydigan maxsus pedagoglar imkoniyati cheklangan bolani maktabga tayyorlashadi. Natijada bunday bolalar inklyuziv ta'limga tayyor holatda, oddiy maktablarda boshqa sog'lom bolalar bilan birgalikda tahsil olish, bunday muhitda ulg'ayishga moslashgan holatda chiqadi.

⁴Keyingi o'quv yilidan boshlab alohida ta'limga ehtiyojmand bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Lekin bu ta'lim tizimi hali O'zbekistonlik imkoniyati cheklangan bolalar, ularning ota-onalari hamda ustozlari uchun yangi muhit, yangi bosqich bo'lgani uchun ham xavotirlar mavjud. Imkoniyati cheklangan har bir bolaning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanish alohida e'tibor talab etadi. Lekin statistikaga ko'ra 2020-yilning o'zida O'zbekistonda ko'plab umumta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin nogironligi bo'lgan o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

⁴ www.kun.uz. Inklyuziv ta'lim uchun 5 yillik reja.- 18.03.2021

Bu ta'lim tizimini joriy etish uchun avvalo jamiyatni, maktabdagi sog'lom bolalarni ham, imkoniyati cheklangan bolalarni ham bunga moslashtirish kerak. Ayniqsa, maktabgacha talim muassasalar va boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan bolalar nogironlik nima ekanligi, bunday bolalarning ustidan kulmaslik kerakligini bilishmaydi. Shuning uchun ham ular inklyuziv ta'lim davomida nogironligi bo'lgan tengdoshining ustidan kulishi, masxara qilishi, uni ajratib qo'yishi, kamsitishi kabi holatlar kuzatilsa, bu albatta nogironligi bo'lgan bolaning ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom bolalar orasida o'zini kamsitilganday his etish bola uchun doimiy ruhiy zo'riqish ostida yashashga sababchi bo'ladi. Maxsus maktab-internatlarda esa nogironlik jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiya olishi jarayonida atrofidagi tengdoshlari ham o'ziga



o'xshashligi, u kabi kasallik bilan og'rigani uchun ham ortiqcha ruhiy bosimlar kuzatilmaydi va ular o'zlarini atrofdagilardan zaif va kuchsizday his etishmaydi. Biroq, inklyuziv ta'limda nogironligi bo'lgan bolalar va sog'lom bolalar bir guruhda va bir sinfda aralash o'qishi natijasida katta o'zgarish bo'lishi kutiladi. Chunki agar bir



nogironligi bo'lgan bola sog'lom bolalar orasida ajralib qolishi butun bir nogironligi bo'lgan jamiyat paydo bo'lishidan ko'ra afzalroqdir.

Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarda ham ushbu jarayonlar asta-sekinlik bilan o'z ijrosini topmoqda.

Misol uchun, men ishlaydigan Quva tumanidagi 40-davlat maktabgacha ta'lim muassasasida Nilufar ismli 4 yoshli qizcha ham tahsil oladi. Nilufar meni guruhimda ikki yildan beri o'qiydi. Dastlab kelgan paytlarida u na eshitardi va na gapira olardi, kar-soqov edi. Hozirda Nilufar maxsus apparat yordamida tovushning 30 foizini eshita olishiga qaramasdan, judayam ziyrak va zehqli qiz. Avvalo, o'zining va ota-onasining, qaysidir ma'noda bizning ta'lim muassasamizdagi murabbiy defektologlar yordamida qizaloq dastlab harf, so'z va jummalarni qaytarishni o'rgandi. Ayni paytda esa o'zini ifodalay olishi uchun kerak bo'lgan so'zlarni va jummalarni biroz qiyinchilik bilan bo'lsa-da ayta oladi.



va

Gapirishida ham talaffuzi ham sog'lom bolalar nutqidan deyarli farq qilmaydi deb ayta olaman. Muhimi, qizaloq o'z nutqidan tortinmaydi.

Defektolog va surdologni ta'kidlashicha, Nilufarning eng katta yutug'i o'zining tirishqoqligi va sog'lom bolalar muhitida adaptatsiya jarayonini boshidan kechirgani bo'ldi. Agar ushbu qizcha o'zi kabi nogironligi bo'lgan bolalar muhitida bo'lganida, balki taqdirga tan berib, sog'ligidagi kamchilik bartaraf etilmagan bo'lardi.

Albatta, barcha ota-onalar va murabbiy-tarbiyachilar bolaning o'sib-ulg'ayishi va kamol topishi ko'ngildagidek emasligidan dalolat beruvchi belgilarni yaxshi bilishlari zarur. Yuqoridagi tavsiyalarni amaliy faoliyatda tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda amalga oshirsalar, bolaning



*"Yilning eng yaxshi tarbiyachisi"
ko'rik-tanlovining 3-o'rin sohibasi*



ijtimoiylashuvi va ma'naviy-jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, nogironligi bolgan bolalar soni kamayadi. Natijada o'zimiz orzu qilgan sog'lom bolalarni tarbiyalab, sog'lom jamiyat qurishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.yuz.uz
2. www.norma.uz. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limjoriy etiladi.-17.10.2020.
3. www.kun.uz. Inklyuziv ta'lim uchun 5 yillik reja.- 18.03.2021
4. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. - Т.: 2009.
5. Имом Бухорий. Ал-Адаб Ал-Муфрад: (Адаб дурдоналари) / Тарж. Ш.Бобохонов, Н.Абдулмажид; Масъул муҳаррир ва биографик маълумотлар, луғат муаллифи А.Самад. –Т.: «Фан», 2006.
6. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. Ўзбек тилининг изоҳли 5-томлик луғати. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат миллий нашриёти. 1-том.